

TIJORAT SIRI, NOU- XAU VA OSHKOR ETILMAYDIGAN AXBOROT BIR XIL TUSHUNCHAMI?

Mamadaliyeva Farangiz To'liqinjon qizi¹

¹ *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi*

Email: mfarangiz02@gmail.com

+998(94) 530-07-19

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.03.2025

Revised: 21.03.2025

Accepted: 22.03.2025

Ushbu maqola tijorat siri, nou-xau hamda oshkor etilmaydigan axborotning farqli jihatlarini, ularning qo'llanilishi va aynan qo'llanilish jarayonidagi xatolar va ularni himoya qilish usullari va muammoli vaziyat tahlilini o'z ichiga oladi.

KALIT SO'ZLAR:

*tijorat siri, nou-xau,
oshkor etilmaydigan
axborot, tijoriy qiymat,
raqobatchi, maxfiylik.*

KIRISH. Intellektual mulk obyektlari instituti o'z navbatida 4 ta guruhga bo'linadi: mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari, individuallashtirish vositalari, sanoat mulki obyektlari, tijorat siri(nou-xau). Tijorat siri o'z navbatida boshqa intellektual mulk obyektlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tijorat siri – uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, moliya-iqtisodiyot sohalarida hamda boshqa sohalarda tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot¹. Tijorat siri ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Tijorat qiymatiga ega bo'lishi ya'ni bu sirning oshkor etilishi korxonaga ma'lum miqdorda moliyaviy zarar yetkazishi;

2. Ushbu tijorat sirini faqatgina cheklangan shaxslar bilishi, misol uchun korxona rahbari yoki korxonada ishlovchi xodimlar jamoasi;

¹ "Tijorat siri to'g'risida"gi qonun

3. Tijorat sirini himoyalash uchun ma'lum choralar ko'rilgan bo'lishi;

Tijorat siriga ma'lum mahsulotning tarkibi, raqobatchilardan ustunlikni ta'minlovchi maxfiy biznes ma'lumotlari, ishlab chiqarish jarayonlari, tadqiqot usullari, yetkazib beruvchi va mijozlar ro'yxati, reklama strategiyalari, moliyaviy ma'lumotlar, formulalar, retseptlar misol bo'la oladi.

Tijorat sirining oshkor etilishi ko'p hollarda insofsiz raqobat bilan bog'liq. Misol tariqasida, shokolad mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kompaniya ajoyib tarkibdagi shokoladni yaratishdi. Buni tijorat siri sifatida tan olishib, xodimlarga bu haqida hech kimga aytmasligini tayinlanadi, ammo boshqa raqobatchi bo'lgan shokolad kompaniyasi ushbu kompaniyadagi xodimni mo'maygina pul evaziga tijorat sirini aytishini taklif qiladi. Buning oqibatida xodim ushbu sirni oshkor qildi va bu retsept barcha joyga tarqalib ketdi va boshqa shokolad kompaniyalari ham aynan shunday ta'mdagi shokoladlarni ishlab chiqarila boshlashdi. Ushbu holat aynan insofsiz raqobat bilan bevosita bog'liq hisoblanadi va buning natijasida kompaniya bir necha barobar zarar ko'radi. Tijorat qiymati shunisi bilan ahamiyatliki, bu retsept yoki ma'lum bir strategiya boshqa hech bir joyda takrorlanmasligidadir. Misol uchun Coca Cola tarkibi, KFCning tayyorlanish uslubi, Kentucky Fried Chicken's retseptlari, McDonald's maxsus qaylalarining mazasi tijorat siriga misol bo'la oladi. Mana bu brendlarning eng asosiy iste'molchini ushlab turuvchi hamda o'ziga jalb qiluvchi vositasi ularning retseptlari va mahsulotlarining ta'midir. Iste'molchilar mana shunday ta'm boshqa joyda uchramaganligi sababli yuqoridagi brendlarning mijozlari ko'p hamda iste'mol darajasi yuqori. Mana shunday noyob tijorat siriga ega bo'lgan brendlarning mashhurlik darajasi aynan tijorat siri bilan o'lchanadi, nazarimda.

Tijorat siri ro'yxatdan o'tkazilmasdan himoya qilinadi va tijorat sirini himoya qilish tijorat siri egasining zimmasida bo'ladi. Tijorat siri agar oshkor etilmasa, cheksiz muddatga himoya qilinadi. Ammo oshkor qilinadigan bo'lsa, u holda uning amal qilish muddati tugagan bo'ladi. Dunyodagi eng mashhur tijorat sirlaridan biri Coca Cola ta'midir. Ushbu ta'm 100 yildan ortiqroq tarixga egadir. Tijorat siri ma'lum bir talablarga javob berishi lozim. Bular quyidagilar:

1. Uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli o'z mulkdori uchun haqiqiy yoki potensial tijorat qiymatiga ega bo'lishi;

2. Qonunchilikka muvofiq hammaga ma'lum yoki hamma uchun ochiq bo'lmasligi;

3. Davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir belgilariga ega bo'lmasligi.

Tijorat sirining mulkdori quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- tijorat siri rejimini yozma shaklda belgilash, o'zgartirish va bekor qilish;
- tijorat siridan foydalanish tartibi va shartlarini belgilash;
- mehnat munosabatlari jarayonida tijorat siridan foydalanishga ijozat berish yoki ijozat berishni taqiqlash;
- tijorat siridan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;
- tijorat sirini uning maxfiyligini muhofaza qilish to'g'risidagi shartlar kiritilishini nazarda tutadigan shartnomalar asosida fuqarolik muomalasiga kiritish;
- tasodifan va (yoki) yanglishib amalga oshirilgan harakatlar natijasida tijorat sirini qo'lga kiritgan shaxslardan uning maxfiyligi muhofaza qilinishini talab qilish;
- tijorat siri uchinchi shaxslar tomonidan oshkor etilgan, qonunga xilof ravishda olingan yoki undan qonunga xilof ravishda foydalanilgan hollarda o'z huquqlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilish, shu jumladan o'z huquqlari buzilishi natijasida yetkazilgan zararining o'ni qoplanishini talab qilish².

Tijorat siri oshkor etilishi mumkin emas va bu sirni oshkor qilish javobgarlikka sabab bo'ladi. Dunyoda tijorat sirini o'g'irlash va uni oshkor qilishga urinish holatlari juda ko'p uchraydi. 2006-yilda Coca Cola kompaniyasining xodimlari Coca Cola tarkibini Pepsi kompaniyasiga 1.5 million dollarga sotmoqchi bo'lishadi. Ammo Pepsi axloq va raqobat tamoyillarini buzishni istamaydi va bu haqda Coca Cola kompaniyasini ogohlantiradi. Natijada aybdor shaxslarga qamoq jazosi qo'llanadi. Tijorat sirining ahamiyati ham uning oshkor etilmasligidadir va shu jihati bilan boshqa intellektual mulk obyektlaridan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasida tijorat sirini himoya qilish bo'yicha "Tijorat siri to'g'risida" gi qonun qabul qilingan. Hozirgi kunda O'zbekistonda tijorat siri bilan bog'liq muammoli vaziyatlar uchramagan. Tijorat sirining mulkdori tijorat sirini litsenziya asosida berishi va sotishi mumkin. Shu bilan bir qatorda tijorat siri so'zining o'rniga nou-xau yoki oshkor etilmaydigan axborot kabi tushunchalar ham o'rindosh sifatida ishlatiladi.

Maxfiy ma'lumotlar - ommaga ochiq bo'lmagan, tijorat qiymatiga ega bo'lishi mumkin yoki bo'lmasligi mumkin bo'lgan, maxfiy ravishda yetkazilgan va oqilona himoyalangan ma'lumotlar.

Tijorat siri - bu haqiqiy yoki potensial iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan yoki o'zining maxfiyligi tufayli raqobatdosh ustunlikni ta'minlaydigan maxfiy ma'lumotlarning o'ziga xos turi va uni sir saqlash uchun egasi tomonidan oqilona harakatlar amalga oshiriladi.

² "Tijorat siri to'g'risida"gi qonun

Nou-xau - maxfiy ma'lumotlar yoki tijorat sirlaridan farqli o'laroq, maxfiy bo'lishi mumkin yoki bo'lmasligi mumkin. Bu atama odatda tajriba orqali olingan, undan foydalanayotgan shaxsga yoki uni egalik qiluvchi tashkilotga (tijorat sirlariga o'xshash) ustunlik beruvchi ko'nikmalar yoki bilimlarning boshqa turlarini o'z ichiga oladi. Garchi maxfiy bo'lishi shart bo'lmasa-da, uning boshqalarga qanchalik ma'lumligi va nou-xauning tomoshabiniga beradigan afzalligi uning qiymatiga bevosita ta'sir qiladi³.

Bu uchala tushunchani ham bir-biriga bog'lab turuvchi asosiy vosita ularning maxfiy bo'lishidadir. Misol uchun, yorqin misol sifatida Coca Cola tarkibi tijorat siri bo'lsa, uni ishlab chiqarish jarayoni nou-xau bo'ladi. Lekin hozirgi kunda haligacha maxfiy ma'lumotlar, tijorat siri, nou-xau kabi tushunchalarni adashtirib yuborish holatlari hali ham uchrab turmoqda. Bu ayniqsa sud jarayonida yaqqol isbotini ko'rsatmoqda. Zarar miqdorini aniqlashda bu tushunchalarning farqli jihatlari katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda qonunchiligimizda tijorat siri va oshkor etilmaydigan axborotga ta'rif mavjud bo'lsa-da, ammo nou-xau so'ziga yuridik ta'rif berilmagan. Oshkor etilmaydigan ma'lumot, nou-xau hamda tijorat sirlari maxfiy bo'lganligi tufayli dunyodagi sonini bilish mushkul. Nou-xau, oshkor etilmaydigan axborot va tijorat sirining egasi ushbu ma'lumotlarni himoya qilish uchun quyidagi usullarni qo'llashi kerak:

1.Maxfiylik shartnomalari – xodimlar, hamkorlar va mijozlar bilan maxsus shartnomalar tuzish.

2.Ma'lumotlarga cheklangan kirish – faqatgina ruxsat etilgan shaxslar muhim hujjatlarga kirishiga imkoniyat yaratish.

3.Xodimlarni o'qitish – ularni ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha xabardor qilish va tushuntirish.

4.Ichki audit va monitoring – xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini tekshirib borish.

5.Hujjatlarni markazlashgan boshqarish – muhim ma'lumotlarni tartibga solish va ularga cheklovlar o'rnatish.

Yuqoridagi usullarni kombinatsiyalangan holda qo'llash tijorat siri, nou-xau va oshkor etilmaydigan ma'lumotlarni himoya qilishning samarali usuli bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, nou-xau, tijorat siri hamda oshkor etilmaydigan bir-biriga juda yaqin tushunchalar bo'lsa-da, ularning farqli jihatlari mavjud

³ [https://gowlingwlg.com/en/insights-resources/articles/2023/distinction-confidential-information-know-how#:~:text=Know%2Dhow%2C%20unlike%20confidential%20information,\(similar%20to%20trade%20secrets\).](https://gowlingwlg.com/en/insights-resources/articles/2023/distinction-confidential-information-know-how#:~:text=Know%2Dhow%2C%20unlike%20confidential%20information,(similar%20to%20trade%20secrets).)

=====
ekanligi va ularning ichida tijorat siri boshqalariga qaraganda qiymati yuqoriroq ekanligi va uni oshkor qilish esa jiddiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fuqarolik kodeksi
2. "Tijorat to'g'risida"gi qonun
3. Intellektual mulk. Darslik
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-sirining-paydo-bo-lishi-va-uning-rivojlanish-tarixi>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-siridan-foydalanish-sohasidagi-munosabatlarni-shartnomaviy-huquqiy-tartibga-solish/viewer>
6. <https://gowlingwlg.com>.

